



## O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINI BEVOSITA SOLIQQA TORTISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ergasheva Lobar

Assistent, Toshkent amaliy fanlar universiteti, Gavhar ko‘chasi 1-uy, Tashkent 100149, O‘zbekiston

ergashevalobar577@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13324994>

**Annotatsiya:** Jahonda tijorat banklari bugungi iqtisodiy o‘shishning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Banklar asosiy foydasini fozili va fozsiz ko‘rinishda oladi. Bundan tashqari tijorat banklari yuqori qiymatga ega mol-mulk va yerga ega hisoblanadi. Yuqorida sanab o‘tilgan daromadlar tijorat banklarining soliqqa tortilish obyekti bo‘lib hisoblanadi. Ushbu maqola O‘zbekistonda tijorat banklari tomonidan to‘lanadigan soliqlar va ularning davlat budjetining daromatlari tarkibidagi o‘rni haqida. Shuningdek, O‘zbekistondagi tijorat banklaridagi soliq yuki va xufyona iqtisodiyotning ulushi qancha ekanligi haqida yozilgan.

**Kalit so‘zlar:** Bevosita soliqlar, soliq solish obyekti, soliq solinadigan baza, soliq yuki, xufyona iqtisodiyot, davlat budjeti, foizli daromadlar.

### KIRISH

Keyingi yillarda banklar tomonidan to‘lanayotgan soliqlarning turlari, ularning faoliyat samaradorligiga ta’siri yuqorilgicha qolmoqda. Bunga sabab tijorat banklari oladigan daromadning 20% ini Foyda solig‘iga, bundan tashqari banklar mol-mulk va yer solig‘i kabi bevosita soliqlarni to‘laydi. Tijorat banklarining majburiy to‘lovlardan ozodligi bankning barqaror faoliyatni amalga oshirishga hissa qo‘shadi. Aksincha, bank kapitali soliqlar va majburiy to‘lovlarni yuqori fozilarda to‘lashi, penya hamda soliq yuki og‘irligi banklar faoliyatining samaradorligiga ta’sir qiladi. Shuningdek banklar majburiyatlari yuzasidan tobe bo‘lishi, uning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va bank kapitali doimo xavf ostida bo‘ladi. Foiz marjasining pasayishi natijasida, ya’ni, resurslarni jalb qilish va joylashtirishning o‘rtacha qiymatlari orasidagi farq tufayli banklar bunday amaliyotdan voz kechishlariga to‘g‘ri keldi<sup>1</sup>.

Klassik nazariyaga ko‘ra, banklar aktiv operatsiyalar va vositachilik haqi orqali daromatlarni shakllantiradi. Bugungi kunda esa banklar tomonidan ko‘rsatilayotgan nokredit faoliyati muhimlik darajasi bo‘yicha ikkinchi o‘rinda turadi. Buning asosini komission daromad tashkil qilmoqda. O‘zbekistonda tijorat banklarining daromatlari tarkibini quyidagicha tasniflanadi:

Bank faoliyati turlari	Daromad turlari
1	2
Ssuda operatsiyasi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• kredit berganlik uchun foiz</li> <li>• veksellar bo‘yicha foizli daromad</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• o‘tgan yilgi kredit operatsiyalari bo‘yicha daromad</li> </ul>
Diskont operatsiyasi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• faktoring va forfeyting operatsiyalari bo‘yicha diskont daromad</li> </ul>
Qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiya	<ul style="list-style-type: none"> <li>• uzoq muddatli majburiyatlarga qo‘yilmalardan daromad</li> <li>• qimmatli qog‘ozlarni qayta sotishdan daromad</li> <li>• qimmatli qog‘ozlar bilan bo‘ladigan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar</li> </ul>
Kafillik faoliyati	<ul style="list-style-type: none"> <li>• berilgan kafolatlar bo‘yicha olingan komissiyalar</li> </ul>
Depozit operatsiyalari va mijoz topshirig‘i bo‘yicha operatsiyalar	<ul style="list-style-type: none"> <li>• kassa operatsiyasi;</li> <li>• inkassatsiya operatsiyasi;</li> <li>• hisob-kitob operatsiyalaridan olinadigan komissiya</li> </ul>
Valuta operatsiyasi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• chet el valutasida bo‘lgan operatsiya bo‘yicha daromad</li> <li>• forvard, fyuchers, svop, opsiyon operatsiyalarini o‘tkazishdan daromadlar</li> </ul>
Bank faoliyatining boshqa yo‘nalishi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• mulkni ijaraga berishdan daromad</li> <li>• lizing operatsiyalaridan daromad</li> <li>• axborot xizmatlaridan daromad</li> <li>• jarima, penyalari va boshqalar</li> </ul>

### 2 MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekistonda banklarning daromatlari asosan 2 toifaga ajratiladi:

1. Foizli daromadlar
2. Foizsiz daromadlar

Shunga ko‘ra daromadlar tarkibi yuqoridagi jadvalga asosan shakllanib boradi. Banklar daromadlariga ta’sir qiluvchi omillar asosan Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi, mamlakatdagi inflatsiya

<sup>1</sup> “Tijorat banklari faoliyati va tahlili”

T.M.KARALIYEV, O.B. SATTAROV,

I.F.SAYFIDDINOV O‘quv qo‘llanma Iqtisod-moliya 107- bet

darajasi, mijozlarning bank xizmatlariga bo'lgan talab va taklif darajasi hisoblanadi. Ushbu tarkibda keltirilgan ma'lumotlar asosida "A" bank daromadlarini quyidagi jadval asosida tahlil qilib o'tamiz:

1-jadval

«A» bankning daromadlari tarkibi va dinamikasi<sup>2</sup>

№	Olingan daromadlar	O'tgan yil		Joriy yilda		Joriy yilning o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi	
		qoldig'i mln so'm	salmog'i %	qoldig'i mln so'm	salmog'i %	mln so'm	ulushi %
	Kreditlardan olingan foizli daromadlar	5372	45%	5123	42,5	-249	-4,6
1	O'zRMB va boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha daromad	0	0,0	0	0,0	0	0,0
2	Davlat obligatsiyalari dan olingan daromadlar	5,5	0,05	5,5	0,05	0	0,0
3	Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar dan olingan daromadlar	20,7	0,2	26,5	0,2	5,8	28,0
4	Sotib olingan debitorlik qarzlari-factoring operatsiyasidan olingan daromadlar	3,6	0,03	1,8	0,01	-1,8	-50,0
5	Lizingdan olingan daromadlar	293,1	2,5	390,4	3,2	97,3	33,2
	<b>Jami foizli daromadlar:</b>	5694,9	47,7	5547,2	46,1	-147,7	-2,6
	Foizsiz daromadlar					0	0,0
7	Vositachilik va boshqa xizmatlardan olingan daromadlar	5680	47,6	5790	48,1	110	1,9
8	Valuta operatsiyalari dan ko'rilgan foyda	543	4,5	680	5,6	137	25,2
9	Boshqa operatsiyalardan olingan daromadlar	21	0,2	23	0,2	2	9,5
	<b>Jami foizsiz daromadlar</b>	6244	52,3	6493	53,9	249	3,9

«A» banki o'tgan yilda 11938,9 mln so'm daromad olgan. Uning 6244,0 mln so'mi, ya'ni 52,3 foizini foizsiz daromadlar va 5694,9 mln so'mini, ya'ni 47,7 foizini foizli daromadlar tashkil etgan. Joriy yilda olingan jami daromad 12040,2 mln so'mga teng bo'lgan. Ushbu yilda bankning daromadlari 101,3 mln so'm, ya'ni 0,8 foizga o'sgan. Foizli daromadlarning asosiy qismini berilgan kreditlar uchun olingan foiz daromadlari tashkil etgan bo'lsa, foizsiz daromadlar asosan, vositachilik va boshqa xizmatlardan kelib tushgan.

Joriy yilda foizli daromadlarning 147,7 mln so'm (2,6%)ga, kreditlardan olingan daromadlarning 249 mln so'm (4,6%)ga kamayib ketganligi ushbu bankning kredit siyosatida jiddiy kamchiliklar mavjudligini bildiradi. Bundan tashqari ushbu holatga bankning foiz siyosati ham ta'sir etishi mumkin. Markaziy va boshqa banklardagi, hisobvaraqlar bo'yicha daromadlarning yo'qligi, ushbu bank tomonidan boshqa banklarga daromad olish maqsadida depozit mablag'lari qo'yilmaganligini bildiradi.

Davlat obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalaridan olgan daromadlari juda kam ulushni tashkil etadi. Bu holat, bank aktivlarida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning juda oz miqdorni tashkil etishi bilan izohlanadi. Keyingi davrda bankning lizing operatsiyalari va ulardan olingan daromadlar miqdorining oshib borishi kuzatiladi. Ushbu operatsiyalardan bankning joriy yilda olgan daromadlari, o'tgan yilga nisbatan 33,2 foizga oshgan. Foizsiz daromadlarning asosiy qismi ko'rsatilgan xizmatlardan kelib tushgan bo'lib, u ning asosiy qismi esa mijozlarga hisob-kitoblarda vositachilik evaziga hosil bo'lgan.

Keltirilgan daromadlarga nisbatan xarajatlarga ham to'xtalib o'tish zarur.

**Xarajat** – bu pul vositasini ishlab chiqarish (bank) va noishlab chiqarish (nobank) faoliyatlariga ishlatish (xarajat qilish) tushuniladi<sup>3</sup>.

Xarajatlar daromadlarga nisbatan olinib quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Operatsion xarajatlar:

1.1. Foizli xarajatlar.

1.2. Komission xarajatlar.

1.3. Moliya bozorida operatsiyalar bo'yicha xarajatlar.

1.4. Boshqa operatsion xarajatlar.

2. Bank faoliyatini funksionallashtirishni ta'minlashi bo'yicha xarajatlar.

3. Boshqa xarajatlar.

O'zbekistonda tijorat banklar tomonidan to'lanadigan bevosita soliqlar quyidagilar hisoblanadi:

- Foyda solig'i;
- Yer solig'i;

<sup>3</sup> "Tijorat banklari faoliyati va tahlili"

T.M.KARALIYEV, O.B. SATTAROV,

I.F.SAYFIDDINOV O'quv qo'llanma Iqtisod-moliya T-2013 113-bet

<sup>2</sup> «A» bank shartli ravishda olingan



- Mol-mulk solig'i.

Yuqorida keltirib o'tilgan manbalarimiz asosida shuni aytishimiz mumkinki o'zbekiston tijorat banklari tomonidan to'lanadigan bevosita soliqlarning asosiy qismi davlat budjetining solikli daromadlar qismini oshirishga sabab bo'ladi. Bu turdagi soliq to'lovlari quyidagicha hisoblanadi:

Soliq solinadigan baza jami daromaddan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 142-145-moddalarida nazarda tutilgan xarajatlarni chegirish orqali, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar hamda Soliq kodeksining 159-moddasiga muvofiq kamaytiriladigan summalar inobatga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan iborat bo'ladi.

Soliq solinadigan foydani hisoblashda jami daromaddan quyidagi xarajatlarni chegirib tashlash mumkin:

- Moddiy xarajatlar;
- Mehnatga haq to'lash xarajati;
- Amortizatsiya xarajatlari;
- Boshqa xarajatlar.

O'zbekistonda soliqlar bo'yicha raqamli texnologiyalar kirib kelmoqda. Ammo to'liq raqamlashtirildi deb bo'lmaydi. Budan tashqari soliq yukining balandligi, inflatsiya darajasining yuqoriligi tijorat banklarining kapitalini oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Foyda solig'ini hisoblashda belgilangan tartibda soliq solinadigan bazani aniqlash zarur quyidagi formula bilan soliq solinadigan bazani topib olish mumkin:

$$SSB=STF+TPZ+TMM+IHF+CHX-DF-I$$

Bu yerda,

**SSB**-soliq solinadigan baza

**STF**-Soliq to'languniga qadar foyda;

**TPZ** – tovar (ish, xizmat)larni tannarxidan past baholarda realizatsiya qilishdan va tekin berishdan zararlar;

**TMM** – soliq to'lovchi tomonidan boshqa shaxslardan tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar;

**IHF** – davlatning ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqining eng kam stavkalaridan kelib chiqib hisoblangan

ijara haqi miqdorining shartnomada belgilangan ijara haqi miqdoridan oshgan summasi;

**ChX** – chegirilmaydigan xarajatlar (soliq solinadigan bazaga kiritiladigan xarajatlar);

**DF** – olingan (olinishi lozim bo'lgan) dividendlar va foizlar;

**I** – imtiyozlar va kamaytiriladigan summalar.

Yuqoridagi keltirilgan soliq solish bazasi topilgach, foyda solig'ini hisob-kitobi va to'lanishi yuzasidan o'zi joylashgan hududdagi soliq inspeksiyasiga to'lovlarni amalga oshiradi. Umuman olganda tijorat banklarini tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yuki yuqori hisoblanadi. Soliq yukining og'irligi xufyona iqtisodiyotning yuzaga kelishiga olib keladi. Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining 40% i xufyona iqtisodiyotni tashkil qiladi.

## XULOSA

Foyda solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i bo'yicha ichki nazoratning ob'ektiv zarurati tijorat banklari haqiqiylikini tekshirish zaruratidan kelib chiqadi. Xususan daromadlar va xarajatlarni tan olish, shuningdek tijorat banklari tomonidan undiriladigan soliqlarini hisoblash tartibi va ichki soliq nazorati tizimini qo'llash yuqori natija beradi. Bu o'z navbatida tijorat banklariga mumkin bo'lgan xatoliklarni aniqlashga yordam beradi. Soliq solinadigan baza ichki ob'ektning asosiy hisoblanadi. Soliq solinadigan baza tijorat banklarida foyda solig'i bo'yicha ichki nazoratning asosiy ob'ekti hisoblanadi. Tijorat banklarida foyda solig'i bo'yicha ichki nazoratni tashkil etish daromad solig'i bo'yicha ichki nazorat tartib-qoidalarini o'tkazish rejasi va dasturini ishlab chiqishdan boshlanishi kerak. Tijorat banklarida foyda solig'i bo'yicha ichki nazoratni axborot ta'minotini tashkil etishda ishda taklif etilayotgan axborot bazasining yetarililigini baholashdan foydalanish maqsadga Boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tijorat banklari rahbarlariga foyda solig'ining moliyaviy natijaga ta'siri to'g'risida ma'lumotlar kerak, shuning uchun foyda solig'i bo'yicha nafaqat keyingi ichki nazoratni, balki dastlabki va joriy nazoratni ham amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Tijorat banklari tomonidan foyda solig'i, mol-mulk va yer solig'i bo'yicha SOLIQ-HAMKOR dasturi banklar tomonidan qo'llanilishi lozim. Unda xarajatlar va daromadlar yuzasidan ichki dastur qabul qilinadi. Qabul qilingan dastur asosida soliq bo'yicha barcha hisob-kitoblar va ularning tahliliy ko'rsatkichlari Davlat soliq inspeksiyalari tomonidan nazorati olib boriladi.

## ADABIYOTLAR:

- [1] Бухадурова М.Н. Элементы депозитной политики коммерческого банка [текст]/ М.Н. Бухадурова// Вестник Национального университета Таджикистана. - Душанбе, 2011. - №10 (74). - С. 47-56 (1,0 п.л.);
- [2] Бухадурова М.Н. Организационные аспекты формирования и реализации депозитной политики коммерческого банка [текст]/ М.Н. Бухадурова//ЛЗестпик «Таджикистан и современный мир». - Душанбе, 2011. - №4 (29). - С. 23-34. (0,7 П.Л.); Статьи в других научных журналах и изданиях:
- [3] Бухадурова М.Н. Вклады населения как важный источник формирования ресурсного потенциала коммерческого банка [текст]/ М.Н. Бухадурова // Современные вопросы науки - XXI век: Сб. науч. тр. по материалам VII междунар. науч.-практ. конф. (29 марта 2011 г.) - Тамбов, 2011. - Выпуск 7,- Часть 5. - С. 20-21 (0,2 п.л.);
- [4] Бухадурова М.Н. Оптимальная депозитная политика коммерческого банка и факторы ее определяющие [текст] / М.Н. Бухадурова // Известия Академии наук Республики Таджикистан. - Душанбе, 2011. - №3. - С. 89-93 (0,65 п.л.).



- [5] Гончаренко Л.И. Эволюционный аспект принципов налогообложения и налогового администрирования банков // Труды Вольного экономического общества России. - 2009. - № 1 (том 106). - С. 84-90. - 0,4 п.л.
- [6] Гончаренко Л.И. Налоговое регулирование рынка деривативов в России: пути дальнейшего совершенствования // Финансы и кредит, - 2009. - № 7. - С. 47-56. - 1,0 п.л./Гончаренко Л.И., Галкин С.С. (вклад автора - 0,5 п.л.)
- [7] Гончаренко Л.И. Теоретические основы управления налоговыми рисками в деятельности банков // Вестник Финансовой академии. - 2008. - № 4, - С. 133-138. - 0,35 п.л.
- [8] Гончаренко Л.И. Налог на добавленную стоимость и операции банков по кредитованию и финансированию уступки права требования // Финансы и кредит, - 2008, - № 40. - С. 56-63.-0,8 п.л.
- [9] Гончаренко Л.И. Операции банков с драгоценными металлами: проблемы налогообложения и освобождения от НДС // Налоговая политика и практика. - 2008. - № 8. - С. 44- 51.-0,75 п.л.
- [10] Гончаренко Л.И. ЕСН: современные проблемы и модели развития // Финансы и кредит. - 2005, - № 30. - С.25-32. - 1,2 п.л. / Гончаренко Л.И., Первякова Ю.Г., Иванеева Ю.И. (вклад автора- 0,4 п.л.)
- [11] Гончаренко Л.И. Необходимость и порядок регистрации банковских счетов предприятий в налоговых органах // Финансы и кредит. - 2002. - № 10, - С. 15-20 - 0,6 п.л.
- [12] Гончаренко Л.И. Порядок предоставления коммерческими банками сведений о финансово-хозяйственной деятельности клиентов // Финансы и кредит. - 2002. \* № 14. -> С. 60-61.
- [13] 0,2 п.л.
- [14] Гончаренко Л.И. Налог на прибыль (доход) организаций: проблема выбора объекта обложения // Финансы. - 2001. - № 6. - С.31-33. - 0,4 п.л. / Гончаренко Л.И., Каллистова Ю.И, (вклад автора - 0,2 п.л.)
- [15] Гончаренко Л.И. Вопросы теории и практики налогообложения ценных бумаг // Финансы. - 1999. - № 2. - С.25-28. - 0,6 п.л. / Гончаренко Л.И., Новиков Д.Ю. (вклад автора- 0,3 п.л.)
- [16] Гончаренко Л.И. Налогообложение доходов и операций коммерческих банков с ценными бумагами // Вестник Финансовой Академии. -1997. - № 4, -С.63-66. - 0,3 п.л.
- [17] Гончаренко Л.И. Секреты исчисления НДС // Российский экономический журнал - М., 1992,-№5,- с. 38-43.-0,5 п.л.